

JISMONIY SHAXSLAR KREDITGA LAYOQATLILIGINI ANIQLASHDA KOMMUNAL TO'LOVLAR VA MA'MURIY JAVOBGARLIK TARIXINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI

Gulturaev Sh.N

“O'zsanoatqurilishbank” ATB Raisi o'rinbosari

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimi jadal suratlar bilan rivojlanib kelmoqda. Jumladan, tijorat banklari kreditlash amaliyotlari hajmi shiddatli suratlarda o'sib bormoqda. Misol tariqasida, 2023-yilda tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar qoldig'i 20,8% ga o'sib 471,4 trln. so'mga yetgan bo'lsa jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i mos davrda 47,2% ga o'sib 148,6 trln. so'mga yetdi [1].

Ammo, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan 2022-yilda chop etilgan “Qarz yuki tahlili va xatarlar” nomli hisobotda [2] jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati ko'rsatkichi Rossiya, Qozog'iston, Armaniston, Gruzuya kabi mamlakatlarga nisbatan pastroq darajada shakllanganligi ko'rsatilgan. Bu esa, o'z navbatida O'zbekistonda chakana kredit bozori hali to'yinmaganligini anglatadi.

O'z navbatida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan chakana kreditlash faoliyati ko'lamini kengaytirishga to'sqinlik qilayotgan bir nechta omillar mavjud. Jumladan, kredit tarixiga va rasmiy daromadga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar soni kattaligi eng jiddiy omillardan biridir. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi rasmiy veb-saytida e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil 1-aprel xolatiga 15 mln. nafar iqtisodiy faol aholidan iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar soni 5,6 mln. nafarga teng [3].

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lgan 5,6 mln. nafar fuqaro uchun garov ta'minoti va boshlang'ich badal talablari qatiyashtirilgan kredit maxsulotlaridan

tashqari umumiy shartlardagi kredit maxsulotlari taqdim etilmaydi [4]. Bunga sabab, tijorat banklari tomonidan kredit tarixiga va rasmiy daromadga ega bo'lmagan jismoniy shaxslarni alternativ ma'lumot manbalarini lozim darajada kredit skoringdan o'tkazish orqali ularni kreditga layoqatliligini aniqlash imkoni mavjud emasligidir.

Mazkur muammoni yechimi sifatida rivojlangan davlatlarda kredit tarixiga ega bo'lmagan jismoniy shaxslarning kommunal, ijara va ma'muriy javobgarlik bo'yicha to'lovlarini amalga oshirish tarixiga asosan kredit skoringdan o'tkazish orqali kreditga layoqatliligini aniqlash yo'lga qo'yilgan.

Bunda, jismoniy shaxslar tomonidan kommunal va ijara to'lovlarini to'lash intizomi xamda ma'muriy javobgarlik bo'yicha to'lovlar yuzaga kelish va ularni to'lash intizomi shu jismoniy shaxslarning kredit intizomini aniqlay olish kuchiga tayaniladi.

Bir qancha rivojlangan xorijiy davlatlarda o'tkazilgan empirik tadqiqotlar yuqorida ko'rsatib o'tilgan faktorlar o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini va jismoniy shaxslar tomonidan kommunal va ijara to'lovlarini to'lash intizomi shu jismoniy shaxslarning kredit intizomini aniqlay olish kuchiga ega ekanligini ko'rsatgan [5].

Norasmiy sektorda band bo'lgan 5,6 mln. nafar fuqaroga tijorat banklari kredit maxsulotlari mavjudligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi sharoitida suniy intellekt texnologiyasini qo'llagan xolda jismoniy shaxslar tomonidan kommunal va ijara to'lovlarini to'lash intizomi xamda ma'muriy javobgarlik bo'yicha to'lovlar yuzaga kelish va ularni to'lash intizomi jismoniy shaxslarning kredit intizomini oldindan aniqlay olish imkoniyatlarini chuqur ilmiy tadqiq qilish lozim.

Bu borada qo'shimcha bir qancha muammolar mavjud bo'lib, yuqorida keltirilgan tizim to'laqonli va samarli ishlashi uchun quyidagi muammolarni tizimli bartaraf qilish lozim:

Kommunal soha korxonalaridaning to'lovlarni qabul qilish va hisobini yuritish billing tizimlarni mukammal emasligi va faoliyat davomida ma'lumotlardagi

noaniqliklar ko'p uchrashi.

Kommunal va ijara to'lovlari intizomi bo'yicha ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kredit byurolari tomonidan qayta ishlanmasligi va bu ma'lumotlarni banklarga kredit skoringi jarayonida foydalanish uchun taqdim etilmasligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. Statistik byulleten. Toshkent sh., 2023-yil, 79-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. Qarz yuki tahlili va xatarlar. Toshkent sh., 2022-yil mart, 15-bet.
3. O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi rasmiy veb-sayti. <https://mehnat.uz/oz>.
4. www.depozit.uz portal.
5. K.Thompson., M.Stegman., C.Foos., Urban Institute. Overview: Access to Utility Data for Underwriting Credit. Washington, DC., 2021.